BUXORO VILOYATI KOGON SHAHAR HOKIMI
Q A R O R I

2022 - yil 6 - oktabr 393-2-208-Q/22 Kogon shahar hokimligi

Kogon shahar ichki xo‘jalik avtomobil yo‘llari va markaziy ko‘chalarida fuqarolar va transport vositalari harakati xavfsizligini ta’minlash, yo‘l transporti hodisalarini oldini olish maqsadida tezlikni cheklovchi va piyodalar o‘tish yo‘l belgilari, hamda sun’iy yo‘lnotekisliklarini o‘rnatish to‘g‘risida.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentiniing 2022-yil 4 apreldagi “Avtomobil yo‘llarida inson xavfsizligini ishonchli ta’minlash va o‘lim holatlarini keskin kamaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-190-sonli qarorining va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 19-maydagi “2018-2022 yillarda O‘zbekiston Respublikasida yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash konsepsiyasi” to‘g‘risidagi 377-sonli qarori bilan tasdiqlangan hamda 2018-2019 yillarda amalga oshirish bo‘yicha “Yo‘l xaritasi”da harakat xafvsizligini takomillashtirish yo‘l-transport xodisalarining oldini olish bo‘yicha topshiriqlar ijrosini ta’minlash bo‘yicha yo‘l-transport hodisalarini oldini olish va harakat xavfsizligini ta’minlash borasida yo‘l belgilari o‘rnatish va sun’iy notekisliklarni tashkil etish maqsadida.

QAROR QILAMAN:

1. Kogon shahar IIB YHXG bo‘limining 2022 yil 14 sentabrdagi 24/6-4139-sonli xati ma’lumot uchun qa’bul qilinsin va maqullansin.

2. Shahar hududidagi ichki xo‘jalik yo‘llarida yo‘l-transport hodisalarini oldini olish maqsadida maktabgacha ta’lim muassasalari, o‘quv muassasalari, aholi yashash punktlari yo‘llarida yo‘l sharoitidan kelib chiqqan holda ilovaga muvofiq 3.24 “Yuqori tezlik cheklangan» va 5.16.1, 5.16.2 «Piyodalar o‘tish joyi» yo‘l belgilari o‘rnatilsin, hamda sun’iy yo‘l notekisliklari tashkil etilsin.

3. Bunda Yevroosiyo davlatlarining davlat meyori GOSTR52605-2006ga asosan mahalliy ahamiyatga ega avtomobil yo‘llaridaga o‘quv muassasalari,

maktabgacha ta’lim muassasalari oldiga kengligini 40 sm.dan, balandligini 7 santimetrdan oshirmasdan, yo‘l qatnov qismi kengligida tashkil etishga alohida e’tibor qaratilsin.

4. Shahar moliya bo‘limi (N.Eshmurodov)ga yo‘l belgilari va sun’iy yo‘l notekisliklari tashkil etishga sarf qilinadigan mablag‘lar ajratish vazifasi yuklatilsin.

5. Shahar Obodonlashtirish boshqarmasi (J.Xayriyev) va shahar ichki ishlar bo‘limi yo‘l harakati xavfsizligi bo‘linmasi (A.Saidov) mahallafuqarolar yig‘ini raislari bilan birgalikda sun’iy yo‘l notekisliklarini yo‘l harakati xavfsizligi qoidalariga mos ravishda tashkil etish bo‘yicha zarur chora-tadbirlarni ko‘rsin.

6. Mazkur qaror “Kogon hayoti” gazetasida e’lon qilinsin hamda shahar hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

7. Ushbu qaror rasman e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

8. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish shahar hokimining o‘rinbosari A.Aminov va shahar ichki ishlar bo‘limi boshlig‘i A.Rajabov zimmalariga yuklatilsin

xokim **H.H.Davlatov**

Kogon shahar hokimining
2022 yil 6 oktabrdagi
393-2-208-Q/22-son qaroriga
1-ilova

Forish tumanida ichki xojalik yo‘llarida joylashgan maktab va maktabgacha ta’lim tashkilotlari joylashgan ko‘chalarga tezlikni cheklovchi va piyodalar o‘tish yo‘l belgilarii va sun’iy yo‘l notekisliklarini o‘rnatish joylashuv dislokasiyasi

T/R	MFY nomi	Ko‘cha nomi	Obyekt nomi
1	“Mustaqillik” MFY	Birdamlik	8-sonli umumta’lim maktabi
2	“Bobur” MFY	Do‘stlik	9-sonli umumta’lim maktabi